
22 mart - Mahalla tizimi xodimlari kuni Farg'ona shahrida bayramona ruhda nishonlandi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan mahalla tizimini takomillashtirish maqsadida Navro'z bayramiga hamohang tarzda 22 mart sanasini "Mahalla tizimi xodimlari kuni" deb e'lon qilgan.

Ushbu sana munosabati bilan bugun shahrimizdagi "Jasmin" tantanalar majmuasida bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda sektorlar, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari, 400 nafarga yaqin mahalla tizimi xodimlari va faollari ishtirok etishdi.

Tadbirni Farg'ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov ochib, yig'ilganlarni kasb bayrami va Navro'z ayyomi bilan muborakbod etdi. Viloyat hokimi "mahallabay" tizimi bo'yicha olib borilayotgan ijobiy ishlarga to'xtalib, albatta bunda mahalla xodimlarining o'rni, vazifasi va tajribasi muhim ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Tadbir davomida namunali faoliyat ko'rsatayotgan bir qator mahalla fuqarolar yig'inlari xodimlari e'tirof etildi. Tantanali tadbirda mas'ullar va sektorlar rahbarlari hamda bir qator korxonalar va tashkilot rahbarlari tomonidan ham bayram tabriklari yo'llandi.

Farg'ona shahar madaniyat bo'limining xushovoz xonandalari tomonidan ijro etilgan bayramona kuy-qo'shiqlar tadbiriga o'zgacha fayz-tarovat olib kirdi. Dilrabo raqslar davomiy bo'lib, yig'ilganlar madaniy hordiq chiqardilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-23 14:28:53